

**KORXONA IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING
NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI**

N.J.Tairova, TDTU, “Elektr ta’minoti” kafedrasida katta o’qituvchisi
R.Ch.Karimov, TDTU, “Elektr texnikasi” kafedrasida mudiri, PhD., dotsent
N.M.Xudoyorov, «ABREST Energy Engineering» MChJ texnik direktor

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yo’llari va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorligini oshirish, xo’jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talablari, samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks etirishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: sanoat korxonasi, ijtimoiy samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish, texnik omil, texnologik omil, mehnat unumdorligi.

Abstract: The article is aimed at reflecting the decisive ways of improving economic efficiency in industrial enterprises and accelerating the development of Science and technology, increasing economic efficiency in industrial enterprises, the market system of economic activity and important requirements of any period, the effectiveness of which reflects the economic stability and ability of the desired enterprise to operate.

Key words: industrial enterprise, social efficiency, economic efficiency, development of science and technology, production, technical factor, technological factor, labor productivity.

O‘zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma’naviy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, kalajakda esa, ularni mo‘l-ko‘l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog‘liqdir

Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yo‘llaridan yana biri fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdir. Texnik va texnologik omil mehnat unumdorligini o‘stirishning kamida uchdan ikki qismini ta’minlaydi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorligini oshirish, xo’jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks etiradi. Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib kelgan va hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo‘llar bilan foydalanish mumkin. ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda mexanizatsiyalashtirish; asosiy

texnologik jarayonlarni robotlashtirish; progressiv, mehnat hamda resurslarni yo‘naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish; xom-ash‘yo va materiallarni zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiya-laridan, hisoblash texnikasidan foydalanish; ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Sanaot korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

Birinchidan – korxonalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo‘naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir. SHunga ko‘ra, ushbu tarmoqlardagi korxonalarni bir qator asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan – qat‘iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish lozim. Buning uchun har bir xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt o‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha tannarxni pasaytirish omillari to‘g‘risida keng va chuqur tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Umumiy holda, mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ma‘lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil: miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya‘ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va zo‘r beruvchi, kuchaytiruvchi omillar harakatda bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish bo‘ladi; agar yana ham ko‘proq samara beradigan ishlab chiqarish vositalari qo‘llaniladigan bo‘lsa, intensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi. O‘zbekiston sanoatida ana shu ikki yo‘ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma-bosqich o‘sib bormoqda.

Samaradorlik eng ko‘p uchraydigan umumiy tushunchalardan biri bo‘lib, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xil sohalarida juda keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o‘qish va o‘qitish samaradorligi, davolash va davolanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda echimlarning samaradorligi va hokazolar.

Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning alohida o‘rni mavjud. Bozor iqtisodiyoti natijalilikni, foydalilikni taqazo etadi. Tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab, ko‘p natijaga erishish zarur. Samaradorlik - bu, foydalilik, natijalilikdir. Ma‘lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish va ma‘lum miqdorda xarajat qilish

kerak.

Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir. $S = \text{Natija} / \text{Xarajatlar}$ Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini farqlaydilar.

Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo'lish shartli bo'linish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan natijalarning hammasini iqtisodiy va ma'lum ma'noda, ijtimoiy samara deb aytish mumkin

Ishlab chiqarishning samaradorligi turlari. Ishlab chiqarishning samaradorligi tushunchasi iqtisodiy o'sish tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy o'sish mamlakat yoki tarmoq yoki korxonaning o'tgan davrga nisbatan yalpi ichki mahsuloti (yalpi mahsuloti) qanchaga o'sganligini ko'rsatadi. Bu ko'satkich absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar yordamida aniqlanishi mumkin. Bu ko'satkich umuman yoki aholi jon boshiga hisoblanishi amaliyotga qabul qilingan.

Iqtisodiy samaradorlik esa ishlab chiqarishning natijaviyligini ifodalovchi kategoriyadir. U iqtisodiyot qanday templar bilan o'sayotganligini ifada etmaydi. Balki olingan natija qanday safrlar, xarajatlar, resurslar evaziga olinganligini ko'rsatadi. U iqtisodiy hayotning sifati jihatini aks ettiradi.

Iqtisodiy samaradorlik bu – mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun eng kam xarajat qilish natijasida maksimal natija olishdir. Mahsulot birligi uchun eng kam xarajat qilgan holda eng maksimal foyda olishni ifodalaydi.

Ijtimoiy samaradorlik bu – inson va jamiyatning ijtimoiy talablariga ishlab chiqarishning maksimal mos kelishidir. Ishlab chiqarish inson va jamiyatning ijtimoiy talablarini eng maqbul ravishda qondirishidir. 18 barqaror bo'lishi talab qilinadi. Aks holda ishlab chiqarish sub'ektlari bankrotlikka uchrashi mumkin. U ob'ektiv bo'lib, iqtisodiy qonun xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Uni ayrim iqtisodchilar ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish qonuni ham deb atashadi. Bu iqtisodiy barqarorlikning asosi sanaladi va har bir davlat, tarmoq va sub'ekt iqtisodiy samaradorlikni tizimli ravishda aniqlashi va uni tahlil etishi shart. Mavjud omillarni o'rganib, uni oshirishga yordam beradigan zaxiralarni aniqlab, ishlab chiqarishga jalb etish talab qilinadi.

Shunday qilib, iqtisodiy samaradorlik iqtisodiy kategoriya darajasidan iqtisodiy qonun darajasiga o'sib borgan fenomen hisoblanadi va unga e'tibor berish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Iqtisodiy samaradorlikni ko'rsatkichlari va ularni aniqlash usullari. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish masalasi har doim iqtisodiyotning dolzarb muammosi sifatida, uning diqqat markazida bo'lib keladi. Ayniqsa hozirgi

paytda bu masala yanada keskin qo'yilmoqda. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasdan turib mamlakatimiz oldida turgan muhim masala – mustaqil iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi. Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag'lar yoki qilingan xarajatlar o'rtasidagi nisbat tushuniladi. Lekin, turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sharoitida shu jamiyatning maqsadidan kelib chiqib, samaradorlik muammosining tub mohiyati o'zgaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi sababli har bir iqtisodiy sub'ekt ko'proq foyda olishga intiladi. SHuning uchun ham ishlab chiqarishning samaradorligini olingan foydaning (F) ishlab chiqarishga sarflangan resurs xarajatlarga (IX) nisbati bilan aniqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning bosh mezonini haqida ham bir qancha fikrlar mavjud. Ayrim olimlar ishlab chiqarish samaradorligining bosh mezonini foyda, boshqa birlari esa yalpi milliy mahsulot, to'g'ri mahsulot, uchinchilari milliy daromad, to'rtinchilari esa qo'shimcha mahsulot deb ko'rsatadilar. Biz hozir bu erda fikrlarning qaysi biri to'g'ri ekanligi haqida batafsil to'xtolmaymiz, lekin shuni aytish kerakki, ko'pchilik olimlar tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikning bosh ko'rsatkichi olingan foydaning xarajatlarga nisbati, ya'ni rentabellik yoki foydalilik darajasi bilan belgilanadi deb tan olinadi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p qirrali masala bo'lib, bu aytilgan birgina asosiy ko'rsatkichda, uni to'la ravishda har tomonlama ifodalab bo'lmaydi. SHuning uchun ishlab chiqarish samaradorligini to'la ifodalashda unda qatnashgan omillarning unumdorligini, ulardan samarali foydalanish darajasini bildiradigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Iqtisodiy samaradorlikni rejalashtirish va tahlil etish nafaqat xarajat va resurslar asosiy turlaridan foydalanish darajasini tahlil etishni, balki uning butunlay o'zgarishini, yig'indi (integral) samaradorligini baholashni ham o'z ichiga oladi. Mana shu maqsadda 23 iqtisodiy samaradorlikning umumlashtiruvchi, kompleks ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi va ishlab chiqarishning oqibat-natijalari shu ko'rsatkichlar yordamida tahlil etiladi. Bunday ko'rsatkichlar turli xarajatlar va resurslarning darajasini yig'ilgan turda, har xil omillarning ta'sirini hisobga oladi. Ishlab chiqarish - texnik vazifani hal etishning biror variantining ijtimoiy-iqtisodiy afzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variantlardan eng samaralisini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik qiyosiy samaradorlik deb ataladi. Qiyosiy samaradorlik ikki va undan ortiq variantni taqqoslash va shu asosda bir variantning boshqa variantlardan ustunligi va optimalligini aniqlab beradi. Yillik iqtisodiy samara — bu, yangi texnika, texnologiya va progressiv mahsulot turlarining, mehnat va ishlab chiqarishni tashqil etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish va baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi xilma-xil, bir-biriga bog'liq bo'lgan

omillar ta'sirida tashkil topadi va shakllanadi. Har bir kompleks, tarmoq va korxonaga uchun uning texnik-iqtisodiy xususiyati sababli samaradorlikni oshirishning o'ziga xos omillari mavjud. Bu ko'rsatkichlarning har biri ishlab chiqarishda qatnashgan turli omillar samaradorligini ifodalab, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Samaradorlik umumiy nazariyasida mezon muammosi, ya'ni baholash o'lchovi asosiy nuqtai nazar masalasi alohida o'rin egallaydi. Jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligi oshirishi samaradorlikning mezoni hisoblanadi. Iqtisodiy hisoblash va tahlil tajribasida ikki xil samaradorlikni farqlaydilar, birinchi – mutloq samaradorlik ikkinchisi - qiyosiy samaradorlik. Ishlab chiqarish sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorlikning darajasi bir-biri bilan bog'liq o'zaro turli xil omillar ta'siri ostida yaratiladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar, ishlab chiqarish samaradorligini mazmun mohiyatini bilish maqsadida o'rganilgan ilmiy asarlar birinchi bob bo'yicha quyidagi xulosalar olishni ta'minladi.

1. Ishlab chiqarish samaradorligi ko'pqirrali va murakkab iqtisodiy toifa hisoblanadi. Uning mazmun-mohiyatini ochib borish maqsadida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

2. Samaradorlik darajasi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, insonlarning turmush darajasini belgilaydi, inflyasiyani pasayishiga olib keladi, ishchi xodimlarni ishlash va dam olish sharoitlarini yaxshilashni ta'minlaydi.

3. Ishlab chiqarish samaradorligi ikki turga bo'linadi. YA'ni ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi olingan natijalar qanday sarflar, resurslar evaziga olinganligini ifodalaydi. Eng kam xarajat qilib eng yuqori miqdordagi foyda olish iqtisodiy samaradorlikning eng yuqori ko'rinish hisoblanadi.

4. Ijtimoiy samaradorlik bu – inson va jamiyatning ijtimoiy talablariga ishlab chiqarishning maksimal mos kelishidir. Ishlab chiqarish inson va jamiyatning ijtimoiy talablarini eng maqbul ravishda qondirishidir.

5. Ishlab chiqarish samaradorligi ayniqsa iqtisodiy samaradorlikka katta va jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki iqtisodiy samaradorlik bu iqtisodiy qonun xususiyatlariga ega kategoriyadir. Unga e'tiborsizlik iqtisodiy sub'ektni bankrot holitiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч. Оптоэлектронное бесконтактное реле напряжения // Агентство по интеллектуальной собственности РесУз. Патент на изобретение № IAP 05122. 29.10.2015.

2. Абдураимов Э.Х., Халманов Д.Х. Силовые бесконтактные коммутирующие устройства Международная конференция «INNOVATION– 2017» Сборник научных статей. Ташкент, 2017, -С.219-220.

3. Каримов И.Ч., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимларида контактсиз

ускуналарнинг ишлатилиши // «Техника юлдузлари» журнали (ISSN: 1682-7686). Тошкент, 2017. - №4. – Б.53-56.

4. Бобожанов М.Қ., Расулов А.Н., Каримов Р.Ч., Саттаров Х.А. Электр таъминоти тизимида контактсиз кучланиш стабилизаторларини тадқиқ қилиш // «Муҳаммад ал-Хоразмий авлодлари» журнали (ISSN: 2181-9211). Тошкент, 2018. - №3(5). – Б.106-109.

5. Абдураимов Э.Х., Халманов Д.Х., Хамидова Н.Э. Высокоэффективные и надёжные бесконтактные коммутирующие устройства. Материалы республиканской научно-технической конф. «Интеграция науки, образования и производства важнейший фактор в реализации инвестиционных проектов» Фил. Рос.Гос Университета Н и Г им. Губкина. Ташкент -2019, С.247-249.

6. Абдураимов Э.Х., Халманов Д.Х. Энергосберегающие бесконтактные коммутирующие устройства. Международная конференция «Проблемы повышения эффективности использования электрической энергии в отраслях агропромышленного комплекса» ТИИИиМСХ г. Ташкент 28 ноябрь 2018 г. С-134-138.

7. Каримов Р.Ч., Рўзиназаров М.Р., Паноев А.Т. Электр таъминоти тизимида сиғимли филтрли тўғрилагични таҳлил қилиш // «Фан ва технологиялар тараққиёти» илмий-техникавий журнали. Бухоро, 2017. - №1. – Б.22-27.

8. Каримов Р.Ч., Рафиқова Г.Р. Сиғимли тўплагичлар энергиясини зарядловчи курилмаларнинг параметрлари ва иш режимларини танлаш // «Фан ва технологиялар тараққиёти» илмий-техникавий журнали. Бухоро, 2016. - №1. – Б.9-19.

9. Суллийев А.Х., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимида оптотиристорли контактсиз кучланиш релесини ишлатиш // «ТошТЙМИ ахбороти» журнали (ISSN: 2091-5365). Тошкент, 2018. - №4. – Б.149-154.

10. Бобожанов М.Қ., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимида оптоэлектронли резистив занжирларни тадқиқ қилиш // «ТошДТУ хабарлари» журнали (ISSN: 1684-789X). Тошкент, 2017. - №4(101). – Б.53-57.

11. Расулов А.Н., Каримов Р.Ч., Абдураимов Э.Х., Рўзиназаров М.Р. Электр таъминоти тизимида транзисторли резистив занжирларни ишлатиш // «ТошДТУ хабарлари» журнали (ISSN: 1684-789X). Тошкент, 2015. - №3(92). – Б.108-113.

12. Абдураимов Э.Х., Расулов А.Н., Каримов Р.Ч., Рўзиназаров М.Р. Электр таъминоти тизимида куч тиристорларини бошқаришида оптоэлектронли резистив занжирларни ишлатиш // «ТошДТУ хабарлари» журнали (ISSN: 1684-789X). Тошкент, 2015. - №2(90). – Б.103-108.

13. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч. Использование бесконтактных реле для улучшения качества электроэнергии // Журнал «Вестник ТашГТУ» (ISSN: 1684-789X). Ташкент, 2013. - №3-4. – С.48-51.

14. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч., Авлакулов Х.П. Ночизикли электр занжирида динамик жараёнларнинг таҳлили // «ТошДТУ хабарлари» журнали (ISSN: 1684-789X). Тошкент, 2010. - №1-2. – Б.72-75.

15. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч. Нелинейная динамическая цепь с тиристором // Журнал «Проблемы информатики и энергетики». Ташкент, 2006. - № 2-3. – С.37-41.

16. Кадыров Т.М., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимларида контактсиз реле ва ростловчи ускуналар // «Техника юлдузлари» журнали (ISSN: 1682-7686). Тошкент, 2006. - № 1. –Б.39-41.

17. Bobojanov M.K., Usmanov E.G., Abduraimov E.H., Karimov R.Ch. Resistive time delay switches // Scientific journal «European Science Review» (ISSN: 2310-5577). Vienna (Austria), 2018, January–February. №1-2. – PP.210-212.